


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 921,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.




2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>30 921,8</b>	<b>36 921,1</b>	<b>106,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 220,2	36 231,4	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	701,6	689,7	103,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>30 220,2</b>	<b>36 231,4</b>	<b>106,2</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 379,9	10 370,5	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 003,5	8 528,5	107,5
sanoat	5 018,2	6 418,5	108,0
qurilish	1 985,3	2 110,0	106,2
<b>xizmatlar</b>	<b>13 836,8</b>	<b>17 332,4</b>	<b>106,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 304,3	2 821,9	113,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 047,7	2 591,5	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	9 484,8	11 919,0	104,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 730,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming soʻmda)**



**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning oʻsish surʼatlari**  
*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2023-yil	2024-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	1,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>31,0</b>	<b>28,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>23,2</b>	<b>23,5</b>
sanoat	16,6	17,7
qurilish	6,6	5,8
<b>xizmatlar</b>	<b>45,8</b>	<b>47,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,6	7,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,8	7,2
boshqa xizmat tarmoqlari	31,4	32,9

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**


2024-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,6 % ni, sanoat tarmog'i 17,7 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 47,9 % ni tashkil qildi

2023-yil




2024-yil



## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,6 %), sanoatda – 108,0 % (17,7 %), qurilishda – 106,2 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (47,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,2 % (7,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,2 % dan (32,9 %) iborat bo'ldi.




■ 2023-yil  
■ 2024-yil

YAHM o‘shiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,08 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko‘paydi.


**2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o‘shida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 112,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 118,4 % va xizmatlarda 117,2 % qayd etildi.

### YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### **2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

2024-jyilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 25 280,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 21 047,3 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 69,8 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 69,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

